

YASAMA OTLAR – O’QUVCHILAR SO’Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI VOSITA

Dots.T. Almamatov

Talaba S. Abdurahmonova

Ma’lumki, tilning lug’at tarkibi yasama so’zlar, shevalardan so’z olish (ichki tomondan), boshqa tillardan so’z qabul qilish (tashqi tomondan) orqali kengayib boradi. Demak, so’z yasalishi lug’atni boyituvchi manbalardan biri sanaladi. Mustaqil so’z turkumlarining deyarli hammasida (son turkumidan boshqa) yasalish jarayoni kechadi. Bu turkumlar orasida yasama otlar ko’pchilikni tashkil qiladi. Ot turkumi o’rta maktabning 6-sinfida o’tilib, o’quv soatlarining katta qismi bu turkumga ajratilgan.

Hamma mutaxassislar e’tirof etganidek, otlar uch xil yo’l bilan yasaladi: 1. Affiksatsiya usuli, 2. Kompozitsiya usuli, 3. Abbrevatura usuli. Bu usullarda yasalgan so’zlar o’quvchi so’z boyligini oshiradi, nutq ravonligiga xizmat qiladi.

Ot so’z turkumini o’rganishdan ko’zlangan asosiy maqsad – o’quvchilarning bu so’z turkumiga kiruvchi so’zlarni to’g’ri yoza olishi, talaffuz qila olishi, va har bir so’zning lug’aviy ma’nosini bilgani holda ularni nutqda to’g’ri hamda o’rinli qo’llay olishiga erishiladi.

Ot so’z turkumida grammatik kategoriyalar unchalik ko’p bo’lmasa-da, unga mansub so’zlar (otlar) leksikamizda salmoqli o’rin egallaydi. Bunday leksemalarning ko’pchiligi yasama ot (so’z)lardir.

Maktabda yuqorida sanalgan usullar bo’yicha yasalgan otlar o’rganiladi. Bulardan affiksatsiya usuli bilan ot yasalish kengroq o’tiladi. Chunki affiksatsiya usuli bilan otlarning ko’pgina ma’no guruhlari yasaladi: shaxs otlari, narsa-qurol otlari, o’rin-joy otlari kabi. Biz bu o’rinda yasama otlarning harakterli tomonlarigagina to’xtalamiz.

Bu mavzuga o’quvchilarni qiziqtirish maqsadida ushbu turkumga oid qiziqarli ma’lumotlar berib borish ahamiyatlidir.

1. Chunonchi, soʻz turkumlari ichida faqat ot turkumigina oʻzidan (otdan) ot yasaydi. Masalan, ishchi, temirchi, sinfdosh, tilshunos kabi. shuningdek, boshqa soʻz turkumlaridan ham otlar yasaladi: turtki, tepki, ochqich, sochiq kabi. Ot turkumiga mansub soʻzlardan ot yasalish (beton+chi, kasb+dosh) ichki yasalish deyiladi. Boshqa turkumdan (otdan boshqa turkumdan) ot yasash tashqi yasalish deyiladi (tugma, suzma). Demak, soʻz yasovchi affiks soʻz turkumini oʻzgartirsa, (masalan, feʼldan ot yasalsa) tashqi yasalish sanaladi. Agarda tashqi yasovchi bilan ichki yasovchi qator kelsa, avval tashqi yasovchi keyin ichki yasovchi qoʻshiladi. Masalan, beza+k+chi (beza feʼlidan –k affiksi yordamida holat oti, unga shaxs oti yasovchi –chi affiksi qoʻshilib shaxs oti yasalmoqda.), kura+k+chi bunga ham shuni aytish mumkin, kiy+im+lik kiy undosh bilan tugagan, -im affiksi qoʻshilib, narsa-buyum oti yasalib, undan –lik vositasida mavhum ot yasalgan. Demak, avval ot boʻlmagan soʻzlardan ot yasalib, ulardan ot hosil boʻlmoqda. Bu kabi maʼlumotlar, birinchidan, oʻquvchilar qiziqishini orttiradi, ikkinchidan, xotirasida uzoq saqlanadi, uchinchidan, bu yasamalar yordamida oʻquvchilar soʻz boyligi oshadi.

2. Otlar ifodalagan narsa-buyumlarning (ushlash, koʻrish, sanash, oʻlchashligi) aniqligi yoki mavhumligi asosida ikki guruhga ajratiladi: aniq otlar, mavhum otlar. Oʻquvchilarga avval aniq otlar haqida maʼlumot beriladi. Shundan soʻng unga qiyosan mavhum otlar tushuntirilsa, ulning xotirasida uzoq saqlanadi. Chunki, ularni bir-biriga qiyoslash, albatta, birini ikkinchisi orqali xotirasiga keltiradi.

Nutqimida mavhum tushunchalarni anglatuvchi tub soʻzlar (uyqu, vatan, vijdon) bilan birga yasama soʻzlar ham mavjud. Yasama mavhum otlar –lik morfemasi vositasida yasaladi: ona+lik, yolgʻiz+lik.

Aniq va mavhum otlar haqida yetarli maʼlumot berilgach, bilim va koʻnikmalarni mustahkamlash maqsadida aniq otlardan mavhum otlar yasash topshirigʻi beriladi. Masalan, talabalik, oʻquvchilik, bolalik, zargarlik, bogʻbonlik kabi. Shuningdek, buning aksi mavhum otlardan aniq otlar yasash: shirin+lik, kunda+lik, dars+lik, yoʻq+lik kabi. Bu topshiriqlar musobaqa tarzida bajarilishi

ham mumkin. Bu metodda o'quvchilar, birinchidan, aniq va mavhum otlarni aniqlay olish imkoniyatiga ega bo'lsa, ikkinchidan, o'quvchilarning so'z boyligi ortadi. O'quvchilar bilimni tekshirish maqsadida shunday savol bilan murojaat qilish mumkin.

-lik affiksi yordamida faqat mavhum otlar yasaladimi?

- geografik nomlarga -lik affiksi qo'shilganda qanday ma'no anglatadi?

3. Ma'lumki, analitik yo'l (usul) bilan qo'shma va qisqartma otlar yasaladi. Mantiqan qaralganda ular ikkalasi ham bir hodisa, ya'ni, so'zlarning qo'shilishi natijasida boshqa tushunchani ifodalovchi yangi so'z hosil bo'ladi. Lekin grammatika so'zning ma'nosidan tashqari shakli bilan ham ish ko'radi. Demak, bunda ikki hodisa: qo'shma va qisqartma so'zlar hosil bo'ladi.

Bu o'rinda e'tiborni tortadigan tomoni, bizningcha, qisqartma so'zlar va ayrim so'zlarning birikuvidir. Qisqartma so'zlarning ma'nosi va qo'shma so'zlardan farqli tomonini aniqlash maqsadida o'quvchilarga bir qator muammoli savollar bilan murojaat qilinsa, ularni mustaqil fikrlashga undaydi:

- Qisqartma so'zlar so'z (ot) yasalishimi?

- Har qanday qisqartma so'z sanaladimi?

- Quyidagi qisqartmalarga fikr bildiring: JDPI, O'zMU, BMT, H.O (Hamid Olimjon), G'.G' (G'afur G'ulom) va boshqalar kabi.

-Orol dengizi, Jizzax shahri, G'allaorol tumani kabi birikuvlar nima deyiladi?

-Abdulla Qodiriy, Botir Jabborovich, Shaxnoza kabi birikuvlar qanday nomlanadi? kabi.

Yasama so'zlar, xususan, yasama otlar o'quvchilar so'z boyligini oshiruvchi vosita sanaladi. O'quvchi nutqining yaxshi, ravon, aniq va ta'sirchan bo'lishi uning so'z boyligiga bog'liq. Ular leksikasida mavjud bo'lgan so'zlarni taqqoslab, qiyoslab ishlatish jarayonida ta'sirchan nutqi shakllanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili, "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent. 1980, 175-187 betlar.
2. O'zbek tili grammatikasi, I-tom, "Fan" nashriyoti, Toshkent. 1975.
3. A.G'ulomov, H. Ne'matov. Ona tili ta'limi mazmuni, "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent. 1995
4. A. G'ulomov va boshqalar. O'zbek tilining morfem lug'ati, "O'qituvchi " nashriyoti, Toshkent. 1977
5. T. Almamatov va boshqalar. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Toshkent. 2013